

SHE’RIY ASARLAR ASOSIDA IFODALI O’QISHGA O’RGATISHNING METODLARI VA USULLARI

N.A.Abdualiyeva

FarDU dotsenti (PhD)

Naziroy Sharipova Bunyodjon qizi

FarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20038404>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida she‘riy asarlar orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. She‘riy matnlarning ritmik, ohangdor va obrazli xususiyatlari o‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada namuna asosida ifodali o‘qish, suhbat metodi, motivatsiya va metodik bosqichlarning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik, leksik va uslubiy kompetensiyalarini rivojlantirishda she‘riy asarlarning didaktik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta‘lim, nutq madaniyati, ifodali o‘qish, she‘riy asar, metodika, suhbat metodi, motivatsiya, ritm, intonatsiya, pedagogik texnologiya, badiiy nutq, o‘qish ko‘nikmasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос развития речевой культуры учащихся посредством поэтических произведений в процессе начального образования. На научно-теоретическом уровне анализируется роль ритмических, мелодических и образных особенностей поэтических текстов в формировании навыков выразительного чтения учащихся. На примере конкретной работы показана эффективность этапов выразительного чтения, разговорной практики, мотивации и методического обеспечения. Раскрывается дидактическое значение поэтических произведений в развитии фонетических, лексических и методических компетенций учащихся начальной школы.

Ключевые слова: начальное образование, речевая культура, выразительное чтение, поэтическое произведение, методология, разговорная практика, мотивация, ритм, интонация, педагогическая технология, художественная речь, навыки чтения.

Kirish. Mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta‘lim va tarbiya masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchi shaxsining shakllanishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi, ifodali o‘qish ko‘nikmalari hamda estetik tafakkuri rivojlanadi. Bu jarayonda she‘riy asarlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘zining ritmik, ohangdor va obrazli tabiati orqali o‘quvchilarning nafaqat nutqini, balki tafakkuri va hissiy dunyosini ham boyitadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida, jumladan Lev Vygotsky ta‘lim nazariyasida, bolaning rivojlanishida kattalar tomonidan berilgan namunaviy faoliyatning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, she‘riy asarlarni ifodali o‘qitishda namuna asosida o‘qish, suhbat va motivatsiya metodlaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang‘ich sinflarda she‘riy asarlar orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Ifodali o‘qish- bu matn mazmunini to‘liq anglab, uni to‘g‘ri urg‘u, talaffuz, pauza va intonatsiya vositasida ta‘sirchan yetkazish jarayonidir. Boshlang‘ich sinflarda ayniqsa she‘riy asarlar orqali o‘qish malakasini yanada shakllantirish nutq madaniyatini yanada shakllantirishning samarali yo‘llaridan biridir. Chunki she‘rni yod olish orqali ifodali o‘qish, his tuyg‘u bilan ifodalash , ohang bilan o‘qish , o‘quvchining fonetik, uslubiy va leksik kompetensiyalarini mustahkam qiladi. Adabiyot nazariyasi nuqtai nazaridan she‘riy asar emotsionallik, obrazlilik, va chuqur mazmun ifodalash xususiyatiga ega. Bu bilan boshlang‘ich ta‘lim metodikasida uni alohida yondashuv asosida o‘qitishni talab qiladi. She‘riy matn lar ustida ishlashda quyidagi metodik yo‘nalishlar muhim sanaladi.

- namuna asosida ifodali o‘qish;
- she‘rni idrok etishga tayyorlash (suhbat metodi yo motivatsiya orqali;)
- lug‘aviy ishlar;
- ritmik tahlil va pauza ustida ishlash ;
- baadiiy vositalarni aniqlash;
- yod olish va ijodiy qayta ifodalash

She‘riy asarlarni namuna asosida ifodali o‘qish. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida she‘riy asarlarni namuna asosida ifodali o‘qish metodikasi o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz, intonatsiya, mantiqiy urg‘u va pauza qo‘yish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ifodali o‘qish -bu matn mazmunini anglagan holda, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ovoz vositasida ta‘sirchan yetkazish jarayonidir.

Adabiyot nazariyasida she‘riy nutq ritmik tuzilish, obrazlilik va emotsional ta‘sir kuchi bilan ajralib turadi. Қосимов Б. she‘riy asarda ohang va mazmun birligi muhimligini ta‘kidlab, badiiy nutqning emotsional-ekspressiv tabiatini asoslab beradi.

Namuna asosida o‘qish metodining mohiyati shundaki, o‘qituvchi she‘rni avval o‘zi me‘yoriy talaffuz, to‘g‘ri nafas olish, urg‘u va pauzalarga rioya qilgan holda o‘qib beradi. O‘quvchi esa tinglash orqali badiiy o‘qish modelini qabul qiladi. Psixolog olim Lev Vygotsky ta‘lim jarayonida kattalar namunasining bolaning nutq va tafakkur rivojiga ta‘sirini alohida ko‘rsatadi. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘qituvchi tomonidan berilgan ifodali o‘qish namunasi o‘quvchining yaqin rivojlanish zonasida samarali o‘zlashtiriladi.

Metodik jihatdan olib qaraganda namuna asosida o‘qitish quyidagi bosqichlarda amalga oshadi.

1. **Tayyorgarlik bosqichi** – she‘r mazmuniga kirish, mavzuga oid suhbat.
2. **Namuna orqali o‘qish** – o‘qituvchining ifodali o‘qishi.
3. **Tahlil qilish** – urg‘u, pauza va ohang ustida suhbat.
4. **Takroriy o‘qish** – o‘quvchilarning individual yoki guruhli ifodali o‘qishi.
5. **Mustahkamlash** – yod olish yoki rolli ijro.

Nutq madaniyati nazariyasiga ko‘ra, ifodali o‘qish o‘quvchining fonetik, leksik va uslubiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, she‘riy asarlarda matnda ritm va qofiya borligi nafasni to‘g‘ri taqsimlash talaffuzni aniqlashtirish va nutq ravon va to‘g‘riligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, she‘riy asarlarni namuna asosida ifodali o‘qish metodikasi boshlang‘ich ta‘limda nutq madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib, u ilmiy-

nazariy asosga ega hamda amaliy jihatdan yuqori pedagogik samaradorlikka ega hisoblanadi. Shu bilan birga bolaning xotirasini mustahkamlaydi va dunyoqarashini kengaytiradi, tili ravon va hozirjavob, teran fikrlaydigan bo'ladi.

She'rni idrok etishga tayyorlash (suhbat metodi va motivatsiya). She'rni idrok etishga tayyorlash - o'quvchilarni badiiy matnni anglashga, uni his qilishga va emotsional qabul qilishga yo'naltirilgan bosqichdir. Bu bosqichning asosiy maqsadi o'quvchining e'tiborini she'r mazmuni va g'oyasiga qaratish, uning tajribasi va qiziqishlarini ishga solish orqali matnni anglash motivatsiyasini shakllantirishdir. Boshlang'ich sinflarda she'riy matn ustida ishlashdan oldin o'qituvchi kirish suhbatini orqali o'quvchilarni mavzuga tayyorlaydi. Suhbat metodi — bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida maqsadli va rejalashtirilgan savol-javoblar orqali dialog tashkil etish usulidir. Suhbatning pedagogik funksiyasi shundan iboratki, o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni fikr almashishga jalb qiladi hamda she'r mazmunini oldindan idrok etishga tayyorlaydi.

Metodik adabiyotlarda aytilishicha, she'rni idrok etishga tayyorlash jarayonida o'qituvchi quyidagilarni amalga oshiradi:

- she'rning mavzusi, voqea-hodisalar konteksti haqida suhbat tashkil etadi;
- o'quvchilarning hayotiy tajribasi yoki kundalik voqealarni she'r mazmuni bilan bog'lab savollar beradi;
- motivatsion savollar orqali e'tibor va qiziqishni uyg'otadi.

Masalan, “Bu she'r sizni qanday hissiyotga olib keladi?”, “Siz she'rdagi qahramonning kayfiyatini qanday tasavvur qilyapsiz?” kabi savollar o'quvchilarda matnni anglashga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Suhbat bosqichi o'quvchilarning faol munosabatini shakllantiradi va ularni she'rni chuqur idrok etishga tayyorlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda she'riy asarlar muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. She'rlarning ohangdorligi, ritmik tuzilishi, obrazlilik va emotsional ta'sir kuchi o'quvchilarning nafaqat ifodali o'qish ko'nikmalarini, balki ularning tafakkuri, tasavvuri va estetik didini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2021.
3. Lev Vygotsky. Tafakkur va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
5. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. Yo'ldoshev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
7. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.
8. G'ulomov A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
9. Raximov S. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDP, 2022.
10. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2021.
11. Abdullayeva Q. O'qish darslari metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.
12. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2019.
13. Xolbekov M. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.

14. Rasulov R. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi. – Toshkent, 2022.
15. Zunnunov A. Didaktika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.